



**O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI SHEVALARNING  
DIALEKTLIKLASHUVI**

**Yusupjanova Feruza Qurbanovna**

*gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Abdurxmonova Sevaraxon Mahmudjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tili shevasining muhim xarakterli jihatlari, O'zbekiston xududidagi shevalar dialektliklashuvi, hamda bazi xududlarga oid shevalarning o'zaro farqlari, so'zlarning ma'noviy izohlari va nazariy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *dialektliklashuv, dialektika, sheva, lahja, so'z, tildagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik, ideal mohiyat, fonetik, leksik, olmoshlar.*

**KIRISH**

Turkiy millatlar va elatlar o'zlarining boy xalq og'zaki ijodi na'munalari va yozma yodgorliklarining qadimiyligi bilan mashhurdir. Yozma manbalarning dastlabkisi „O'rhun- Enasoy bitiklari“ nomi bilan Markaziy Osiyo, Sibir va Mo'g'uliston zaminlaridan topilganligi bizga tarixdan ma'lum. Bundan tashqari „Qutadg'u blig“ va Devoni lug'otit turk“ asarlaridan ham bilishimiz mumkin.

Dialektika (yunoncha dialektike – suhbat, bahs-munozara qilish) – tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi ta'limot, falsafiy yondashuv va ilmiy bilish usullaridan biri<sup>1</sup>. Qadimda dialektika suhbat, bahs-munozara vositasida haqiqatni ochish yo'li va usuli sifatida talqin qilingan. Keyinchalik falsafiy tafakkur rivojlanib borishi bilan dialektikaning mazmuni ham boyib borgan.

Dialektika borliqdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar mazmun-mohiyatini, ularning o'zaro aloqasi, sabab-oqibat bog'lanishi, harakati, o'zgarishi, ta'sirlashuvi va rivojlanishi bilan bog'laydigan ta'limot sifatida e'tirof etiladi. Dialektika ta'limotiga ko'ra, olamdagi barcha narsa va hodisalar, shuningdek, ular haqidagi tushuncha va bilimlar doimo o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Tabiiy hodisalarni, ijtimoiy hayot va tafakkur jarayonlarini dialektik nuqtai nazardan tahlil qilish ularning ob'yektiv aloqadorligini, zaruriy bog'lanishlarini, o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlarini ochib berish, istiqbolni aniqlash, taraqqiyotga erishishning samarali yo'llari va vositalarini ishga solish imkonini yaratadi.

<sup>1</sup> <https://oyina.uz/>

<sup>2</sup> Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1996



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

"Dialektika" so'zi ilk bor Sokrat (Suqrot) tomonidan qo'llanilgan. U Dialektikani bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar to'qnashuvi orqali haqiqatni topish san'ati deb bilgan. Geraklit ijodida Dialektika o'zining antik davrdagi eng yorqin ko'rinishiga ega bo'ldi. Geraklit fikricha, Dialektika – muttasil harakatdagi olam ichki jihatdan ziddiyatli va u doimiy vujudga kelish, rivojlanish hamda tanazzulga yuz tutish – qarama-qarshiliklar birligidan iborat. Mazkur davrda Geraklit va boshqa yunon faylasuflari ta'limotlari negizida sofistlarning salbiy tusdagi Dialektikasi vujudga keladi. Sofistlar haqiqatni borliq Dialektikasidan emas, bahslar olami, ruhiyatidan axtarib, ziddiyatli inson tafakkurini harakatga keltirdilar, oxir-oqibatda bilish faqat nisbiy, gumoniy, taxmin ekanligini e'tirof etishgacha borib etdilar. O'rta asrlardan 18-asrgacha Dialektika oddiy (maktabda o'qitiladigan) mantiq ilmi sifatida tushunib kelindi. Platon Dialektikani narsalarning ideal mohiyatini bilish maqsadida tushunchalarni bo'lak-bo'laklarga ajratish, so'ng bir-biri bilan o'zaro bog'lash uslubi deb hisoblagan. Kuzalik Nikolay, J. Bruno Dialektikani qarama-qarshiliklarning mos kelishi haqidagi ta'limot deb ta'kidlashgan. Kantnit fikricha, Dialektika voqelikni tajriba, hissiy bilimlar orqali emas, balki sof tafakkur asosida bilishga intiladi.

Tilning malum hududdagi og'zaki qo'llanishidagi xususiyatlarini o'zida aks ettirgan shakli sheva yoki dialekt (grekcha dialektas - til, nutq, sheva) deb ataladi. Katta sheva va dialektlarni lahja deb yuritiladi. Til va sheva o'rtasidagi tafovut shartli bo'lib, go'yo milliy til va adabiy til o'rtasidagi farqqa o'xshashdir. Bu farqlanish turli hududlardagi bir tilning turli ko'rinishidek tuyuladi

Sheva atamasi forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, holat, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni anglatadi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan kichik bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiy o'rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi<sup>2</sup>.

Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiya sohasining rivoj topishda muhim o'ringa ega. Qadimdan shevaga e'tibor qaratilgan bo'lib, buning ilk tarixini Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari orqali ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, To'nyuquq bitik toshida shevalarning qadimiy ko'rinishi saqlanib qolgan. Masalan, "...uduzug'ma ulug'i sid arti. Yig'il, tadi, yig'masi ban artim - bilga To'nyuquq<sup>3</sup>. Bunday qadimiy ko'rinishni bugungi kunda ayrim shevalar saqlab qolgan.

<sup>2</sup> Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1996

<sup>3</sup> Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. Toshkent: Navro'z, 2019



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Xususan, Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o'rganilib, uning boshqa o'zbek shevalaridan farqli, o'zigagina xos belgilari aniqlangan. Namangan shahar shevasi o'zining fonetik, leksik va grammatik tomoni bilan o'zbek shevalari orasida ajralib turadi. Xususan, Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari o'ziga xosdir. Masalan, kelishik tizimlarida bu yaqqol namoyon bo'la oladi. -da (o'rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyda shaklida; Namangan shahar shevasida uuyde shaklida uchraydi. -dan (chiqish) kelishigi esa uydan; uydaa shaklida, ya'ni bunda qo'llanilgan "a" fonemasi invarianti til orqa "a" unlisini ifodalaydi. -ga (jo'nalish) kelishigi qo'shimchasi eshikka so'zini (adabiy) talqini sifatida ishi:ga shaklida uchraydi. Bundan tashqari, -lar (ko'plik shakli) qo'shimchasi -le, -ler shaklida uchraydi. Masalan, qalamlar(adabiy) - qalamle(shevada), qalamlarim - qalamlerim kabi.

Olmoshlar ham adabiy tildan farqli hisoblanadi. Masalan, Anavi - Anu Manavi - Manu Mana shu - Mashu Ana shu - Ashi Allakim - Alakim Allanarsa - Ennassa Hech nima - Hish tima Hech narsa - Hich nassa Otlarning shakllari ayrim so'zlarda tamomila boshqachaligi kishini hayratga solidi. Doktor (shifokor) - Duxtir Militsiya - Milisa Shofyor - Shopir Artist - Artis Ko'mirfurush - Kumirprush Savdogar - Sovdagar Kelinoyi - Kinchabi (Kelinchak + aba) Ona - Aba Dada - Deda Aka - Oka Amaki - Katta deda Qaynsingil - Qeysingil Qaynota - Amaki Qaynona - Qeynana Mushuk - Mushu, mishiq, mishig' Sichqon - Chichqon Chumoli - Chimaliq Ari - Eri Baliq - Belig' Xo'roz - Xuroz Bo'ri - Buri Ayyiq - Eyig' Kiyik - Kiyi: Chiyabo'ri - Chiyaburi Pichoq - Pichog' Bolta - Bolte Mix - Miq Ko'ylak - Ko'yla, ko'yna Lozim - Lo'zim Chopon - Cho'pon Shaftoli - Shaptali Behi - Bihi O'rik - Uru: Anor - Onor Boychechak - Boychecha: Namozshomgul - Nomoshshomgul Sassiqqopushak - Sasig'po'pusha: Tavba - Toba Ishton - Ishto: Soch - Choch Bu misollar qatorida yordamchi briliklarni ham keltirishimiz mumkin: Bilan - bila, mina (undan) keyin - (ina) ki:,kti, kiti, kiyi: (man) ham - manam (man) bilan - ma bla (man)dan keyin - mandan kti

Olib borilgan tahlillarga ko'ra shuni bildirishimiz mumkunki, Namangan shahar shevasi o'zbek shevalari doirasida boyligi, emotsionalligi bilan ajralib turadi. Shevalarni to'plash jarayonida yangi leksemalar kashf etilib boraverar ekan, o'zbek tili boyishdan to'xtamasligiga guvoh bo'lamiz.

Xorazm shevasi o'zbek tilining shevasi hisoblanilib, turkiy tillar oilasi sharqiy o'g'uz guruhining o'g'uz (janubi-g'arbiy) guruhiga kiradi<sup>4</sup>. Dastlab Xorazm aholisi sharqiy eroniy tillarga mansub xorazmiy tilida gaplashgan. Xorazm-turkiy tili milodiy VI asr boshlarida, Turk xoqonligi (567 –

<sup>4</sup> <https://uz.wikipedia.org/>



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

603) davrida xorazmiy tilining turklashishi oqibatida shakllanishni boshladi va, asosan, mazkur jarayon XI asrda Saljuqiylar istilosidan keyin jadallashdi. Jarayon 1220-yili Chingizxon jangchilari bosqini oqibatida Xorazmshohlar davlati so'nganidan keyin yakunlandi.

Plano-Karpini guvohlik berishicha, XIII asrdanoq xorazmiylar orasida turk nutqi ustun bo'lishni boshladi. XIV asrning 1-yarmi xorazmiy tilining to'liq turkiylashishi yakuniy davri bo'ldi<sup>5</sup>.

Xorazm shevasiga O'zbekistonning shimoli-g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlaridagi, shimoli-sharqiy Eronning Xuroson viloyatidagi ba'zi shevalar va Qozog'istonning 2 ta shevasi yaqin keladi.

A. N. Samoylovich turkumlashi bo'yicha bu shevalar xiva-o'zbek va xiva-sart lahjalari deya ta'riflanadi va qipchoq-turkman deb nomlangan alohida guruhga kiritiladi.

XII asrda Xorazmda yashagan Mahmud Az-Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asarida XIV – XIX asrlarda xorazm-turkiy tili rivoj topgan 6000dan ko'p so'z sanaladi<sup>6</sup>.

XV asrdan boshlab Xorazmda sovet tilshunoslari tomonidan eski o'zbek tili deb nomlangan chig'atoy turkiy tili adabiy til bo'ladi.

Adabiy O'zbek tilidan fonetik farqlari:

a) so'z boshida „k“, „t“ tovushlari o'rniga mos ravishda „g“, „d“ ishlatiladi: til – dil, tish – dish, kel – gal, kerak – garak;

b) „q“, „k“ harflari so'z oxirida tushirib qoldiriladi: issiq – issi, tirik – diri, xivalik – xivali;

c) ko'pchilik so'zlarda „e“dan „a“ga o'tish hollari uchraydi: men – man, sen – san, kel – gal, kes – kas, kerak – garak;

d) so'zlarning o'rin-payt kelishigi shakllarida III shaxs shaklida kelishik qo'shimchasidan oldin „-n-“ tovushi qo'shiladi: ichinda (ichida), dishinda (tishida);

e) „ng“ harfi ikki xilda aytiladi, ham „ng“, ham „ŋ“ shakllarida: kitopin (kitobing), giyiming (kiyiming).

Morfologik xususiyatlari:

a) qaratqich kelishigi qo'shimchasi „-ni“ shakliga ega; ot qo'shimchasi adabiychadan farq qilmaydi (birlilik. „-m“, „-im“, „-ng“, „-ing“, „-i“, „-si“). b) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi „-a“, „-ya“ shakliga ega;

<sup>5</sup> Ibn Battuta->ПУТЕШЕСТВИЯ ПО ЗОЛОТОЙ ОРДЕ И СРЕДНЕЙ АЗИИ->ПУБЛИКАЦИЯ 1988 Г.

<sup>6</sup> Benzing, J. Das chwaresmische Sprachmaterial einer Handschrift der "Muqaddimat al-Adab" von Zamaxšarī Text. Wiesbaden, 1968; with full bibliography to date. Google Scholar



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

c) davomiylik harakatidagi hozirgi davr fe'lining tugallanmasi „-yotir“ shakliga ega: galyotir, boryotir (kelyapti, boryapti);

d) kelgusi davr fe'lining tugallanmasi „-jak“, „-jaq“ shakllariga ega: galajak (kelmoqchi), borajak, borajaq (bormoqchi);

e) maqsad fe'lining shakli „-ali“ qo'shimchaga ega: galali (kelaylik), borali (boraylik).

Yana shunga qo'shimcha tariqasida aytishim mumkinki, Xorazm shevasi lug'at boyligida bir qancha o'ziga xos so'zlar mavjud masalan:

zangi (narvon), so'qi (o'gir), yimirta (tuxum), qumri (musicha), burch (garmdori), qarinja (chumoli), taka (bolish), sipsa (supurgi)<sup>7</sup>.

Yoqtu

Xorazm shevasida ushbu so'z “yorug’” ma’nosini ifodalaydi. Mumtoz adabiyot namunalarida ham undan keng foydalanilgan. Masalan:

Iki yoqtu guhar olamga bergan,  
Muhabbat ganjini odamg'a bergan.

(“Muhabbatnoma” dan).

Dig'iriy

Ushbu so'z vohaning asosan Urganch, Xiva, Xonqa tumanlarida “tor ko'cha”, “jin ko'cha”, “boshi berk ko'cha” ma'nolarida keladi. Masalan: “Dig'iriydan u yog'iga yo'l yo'q edi”.

Xaraz

Bu so'z “tegirmon” ma'nosida qo'llanilib, vohaning barcha tumanlari uchun xarakterlidir. Masalan: “Otanazar kun peshinlab un torttirgani xarazga ketdi”.

Secha

Asosan o'g'uz shevasiga xos bo'lib, “chumchuq” ma'nosida keladi. Vohaning Urganch, Xonqa, Xiva, Yangiariq, Qo'shko'pir tumanlarida bu so'z keng qo'llaniladi. Masalan: “Bola qo'lga tosh olib ulgurmay, shoxdagi sechalar pir etib uchib ketdi”.

Uchak

Vohada bu so'z “tom” ma'nosida qo'llaniladi. Gurlan, Yangibozor tumanlarida esa uning muqobili sifatida “tambash” so'zidan foydalaniladi. Masalan: “Dovul og'a somon tashlash uchun uchakka chiqdi”.

Qarinja

Xorazm vohasida hozir ham qo'llanib kelinadigan bu so'z “chumoli” ma'nosini ifodalaydi. Masalan: “U qo'lida o'rmalab ketayotgan qarinjani puflab tashladi”.

<sup>7</sup> “Yoshlik” jurnali 2016 yil 8-soni



Rabg'uziyda "qarinja" – "qarinchqa" tarzida uchraydi:

"Qarinchqalarning ulug'i oqsoq erdi". ("Qisasi Rabg'uziy" dan)

O'zbek tili sezilarli darajada lahjaviy tarmoqlanganligi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi shevalari adabiy til asosiga kirgan<sup>8</sup>.

Zamonaviy o'zbek tilida unlilar ohangdoshligi buzilgan yoki kam ifodalangan, [o] va [ö] - [o]da, [u] va [ü] – [u]da, [ɪ] va [i] esa – [i]da (o'rta qatordagi unli) mos kelishi yuz bergan. "O"lash xususiyatiga ham ega ([a] > [o]). Shu vaqtning o'zida oxirgi k, q, g, g'lar saqlanadi, tarixiy old unlilar o'rtasidagi holatida esa -j- tovushi -g- ga o'tadi.

O'zbek tilida qo'shni qipchoq tillariga nisbatan fors va arab tillaridan o'zlashtirishlar soni ko'p.

Biz turkiy til nazmida baralla qalam tebratgan, uning mazmunan bor latofatini dunyoga ovoza qilgan ajdodlar avlodimiz. Shunday ekan, millat ko'zgasiga aylangan ona tilimizni asrab-avaylaylashimiz, har bir xudud sheva, lahjalarini chuqur o'rganib, o'larga yanada ko'proq urg'u berishimiz joiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.N.Samoylovich. Тюркское языкознание. Филология. Руника. М., 2005.
2. В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. М., 1971.
3. Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. Toshkent: Navro'z, 2019
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1996
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Toshkent. 2009
6. [Ibn Battuta->ПУТЕШЕСТВИЯ ПО ЗОЛОТОЙ ОРДЕ И СРЕДНЕЙ АЗИИ->ПУБЛИКАЦИЯ 1988 Г.->](#)
7. G. Nepesov. Из истории Хорезмской революции. 1920-1924 гг., Таш., 1962
8. <https://milliycha.uz/>
9. <https://uz.wikipedia.org/>
10. "Yoshlik" jurnali 2016 yil 8-soni

<sup>8</sup> <https://uz.wikipedia.org>